

DISTRIBUTION, ETIOLOGY AND METHODS OF PREVENTION OF VIRAL AND BACTERIAL INFECTIONS IN NEWBORN CALVES

Ergashev Nodir Baxodirovich

Tayanch doktorant

Mengliyev G'ayrat Akromovich

Veterinariya fanlari nomzodi

Samarqand veterinariya medisinasi instituti Toshkent filiali

Summary: This article provides information on the etiological factors of viral and bacterial infections in newborn calves in livestock farms in the regions of the country and ways to prevent them. This, in turn, will allow farm specialists to diagnose, treat and prevent diseases

Keywords: colibacillosis, salmonellosis, rotovirus diarrhea, etiology, prevention

YANGI TUG'ILGAN BUZOQLARDA UCHRAYDIGAN VIRUSLI-BAKTERIAL INFSEKTSIYALARINING TARQALISHI, ETIOLOGIYASI VA ULARNI OLDINI OLISH USULLARI

Ergashev Nodir Baxodirovich

Tayanch doktorant

Mengliyev G'ayrat Akromovich -

Veterinariya fanlari nomzodi

Samarqand veterinariya medisinasi instituti Toshkent filiali

Annotatsiya: Mazkur maqola Respublikamiz viloyatlaridagi chorvachilik xo'jaliklaridagi yangi tug'ilgan buzoqlarda uchraydigan virusli-bakteriali infeksiyalarning etiologik omillari va ularni oldini olish usullari borasida ma'lumotlar keltirilgan. Bu esa o'z navbatida xo'jlik mutaxassislariga kasalliklarni aniqlash, davolash hamda oldini olishda qulay imkoniyatlar yaratadi.

Аннотация: В данной статье приведены сведения об этиологических факторах вирусных и бактериальных инфекций новорожденных телят в животноводческих хозяйствах регионов страны и способах их профилактики. Это, в свою очередь, позволит специалистам фермерских хозяйств проводить диагностику, лечение и профилактику заболеваний.

Kalit so'zlar: kolibakterioz, salmonellyoz, rotovirusli diareya, etiologiya, oldini olish.

Ключевые слова: колибактериоз, сальмонеллез, ротовирусная диарея, этиология, профилактика

Mavzuning dolzarbligi: Respublikamizda chorvachilikni jadal rivojlantirish va rentabelli sohalardan biriga aylantirish, aholi turmush darajasini yaxshilash, ichki bozorni go'sht, sut kabi hayotiy muhim oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror to'ldirishning muhim omili sifatida rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada

veterinariya fani va amaliyoti oldiga chorva mollarining kasalliklariga qarshi kurashish va davolashning samarali va arzon usullarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish orqali mahsulotlar tannarxini kamaytirishga erishish kabi dolzarb vazifalar qo'yilgan.

Yangi tug'ilgan buzoqlar orasida sodir bo'ladigan virusli-bakteriali insektsiyalar (kolibakterioz, salmonellyoz, rotovirusli diareya) juda katta iqtisodiy zarar keltirishi muhim muammo bo'lib kelmoqda.

Yangi tug'ilgan buzoqlarda uchraydigan virusli-bakteriali insektsiyalar chorvachilik uchun eng katta xavf bo'lib samarali kurashish bo'yicha chora-tadbirlarining yangilarini yaratish va tadbir etish lozimdir..

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Biz tadqiqotlarimiz jarayonining birinchi bosqichida quyidagi kasalliklar haqida ma'lumotlarni yig'dik va ushbu kasalliklarning kelib chiqish sabablarini o'rgandik hamda olingan ma'lumotlarni va kasalliklarning profilaktikasi bo'yicha qisqacha ma'lumotlarni keng ommaga havola etishni maqsad qildik. Jumladan:

Kolibakteroz yosh hayvonlarning o'tkir kechadigan yuqumli kasalligi. Asosan 1 kunlikdan 8 kunligacha bo'lgan hayvonlarda uchraydi. Yangi tug'ilgan hayvonlarda patogen ichak tayoqchalari oshqozon-ichak organlarini zararlab, kuchli ich ketishi bilan kechadi. Kasallikka xos belgilar: enterit, sepsis va enterotoksemik holatlar kuzatiladi. Kasallikni *E. Coli* guruhiga mansub mikroorganizmlarning asosiy vakili *Eshericha Coli* qo'zg'atadi.[2;6]

Yangi tug'ilgan hayvonlar birinchi kundanoq kasallikka chalinadi. Kasallikning qo'zg'atuvchisi tabiatda keng tarqalgan bo'lib, u faqat kasal hayvondan emas, balki sog'lom hayvonning oshqozon-ichak yo'lidan ham ajratib olinadi. Kasallik asosan alimantar yo'l bilan yuqadi. Kasal hayvon tashqi muhitga ajralib chiqadigan hamma chiqindilari orqali ichak tayoqchasini ajratib turadi va tashqi muhitdagi qator ob'ektlarni zararlaydi. Kolibakteriozning kelib chiqishida xo'jalik sharoitining ta'siri katta. Zax, qorong'u, eski binolarda yosh hayvonlarning saqlanishi, bo'g'oz hayvonlarni zaruriy ozuqalar bilan balansli oziqlantirmaslik, ba'zi hollarda esa bo'g'oz sigirlarni ozuqaviy sifati buzilgan silos va vino zavodlari chiqindilari barda bilan oziqlantirish, sanitariya masalalarining talab darajasida emasligi yosh hayvonlar yuqumli kasalliklari, jumladan kolibakteriozni tezlashtiruvchi omillardan bo'lib hisoblanadi.[3;5;6]

Salmonellyoz barcha turdagi yosh hayvonlarning septik shaklida namoyon bo'ladigan, o'tkir o'tadigan yuqumli kasallikdir. Qo'zg'atuvchilari *Salmonella* avlodiga kiradi. Buzoqlar 3 – 4 haftadan 4 oylikgacha bo'lgan yoshda kasallanadi, qo'zg'atuvchisi – *S.dublin* va *S.typhimurium* lar.[2;7]

Buzoqlar ko'pincha bir haftaligidan kasallanib, ikki oylik va undan katga yoshdagilarda ham uchraydi. Kasallikni o'z vaqtida davolash boshlamasangiz, endotoksinlarning muhim massasiga etib borganingizda, ichakning himoya qatlami buziladi va hayvonning qon va limfa tizimlariga kiradi. Ushbu bosqich allaqachon paratifozi septitsemiya deb ataladi va u salmonellyoz buzoqlari uchun eng xavfli hisoblanadi. Qon aylanish tizimida eksudativ o'zgarishlar qizil qon hujayralarining diapedeziga olib keladi, bu esa o'z navbatida ko'p miqdorda gemorragiyaga olib keladi va shilliq qavatning zararlanishiga, shuningdek, seroz qoplamalarga olib keladi. Kasallik asosan alimantar yo'l bilan yuqadi, ona qornida o'sayotgan davrda ham yuqishi mumkin. Salmonellyoz ko'p hollarda kasallik qo'zg'atuvchisi bilan ifloslangan sut orqali yuqadi. Yelinda sut juda kam bo'lganda ham salmonella bilan zararlanadi. Sigirlar iflos joylarda saqlanganda salmonella bilan zararlangan axlatlardan ifloslangan yelindan bolasi emganda yoki sog'ish jarayonida kasallik yuqishi mumkin. Bakteriya qurib qolgan organik muhitlarda bemalol yashay oladi. Shuning uchun qurib qolgan axlat, burun va

og'izdan ajralgan suyuqliklar kiyim-kechak, idishlar hamda molxona devorlari, oxurlarga yopishib qolsa, uzoq muddatli salmonellyoz manbaiga aylanadi.[1;4;7]

Differentsial diaqnoz. Kolibakteriozning klinik belgilari salmonellyoz, dispepsiyaga juda o'xshash. Shuning uchun faqat klinik belgilarga emas, balki uning epizootologiyasi va patologoanatomik o'zgarishlari hamda albatta bakteriologik tekshirish usullariga murojaat qilinadi. Kolibakterioz salmonellyozdan farqli o'laroq dard birinchi kundanoq boshlanadi. 7-8-kungacha kasallanib, dastlab harorat ko'tarilsa, enterit kuzatilsa, kolibakteriozga gumon qilinadi. Salmonellyozda esa kasallik asosan 7-10-kuni boshlanib, bir necha oy davom etishi mumkin. Kolibakteriozda septitsemiya kuchli rivojlanib, to'xtovsiz ich ketadi, kasal hayvon butunlay kuchsizlanib yotib qoladi. Salmonellyozda klinik belgilar sekinroq rivojlanadi, lekin har doim tanada isitma bo'ladi. Yorib ko'rilganda taloqda kuchli o'zgarish kuzatilmaligi, jigarda nekrotik o'choqlar bo'lmasligi kolibakteriozga xos patologoanatomik o'zgarishlardan darak beradi. O'tkir kechgan salmonellyozda gemokultura ajratiladi. Surunkali holatda esa nafas olish a'zolari va bo'g'imlar jarohatlanadi.[4;5;6]

Yosh buzoqlarning rotavirus diareyasi bu yosh hayvonlarning o'tkir, o'ta yuqumli kasalligi bo'lib, u ko'p miqdorda diareya, tananing suvsizlanishi, kataral yoki kataral-gemorragik gastroenteritning rivojlanishi, yangi tug'ilgan buzoqlarda yuqori o'limi bilan tavsiflanadi. Kasallikni qo'zg'atuvchisi rotavirus turkumiga mansub bo'lib, o'z tarkibida ikki zanjirli RNK saqlaydi.[4;7]

Tabiiy sharoitda rotavirus diareyasi bilan yosh buzoqlar, asosan 14 kunligagacha ayniqsa hayotning dastlabki 2-6 kunida kasal bo'lishadi. Rotavirus infeksiyalari ko'pincha bakterial infeksiyalar bilan murakkablashadi. Ushbu aralash infeksiyalar bilan o'limga olib keladigan diareya ehtimoli oshadi. Ko'p sonli kasallik bir haftalik buzoqlarda kuzatiladi. Virus o'zining ko'payishini ingichka ichak epiteliyalari hujayralari sitoplazmasida, mezenterik limfa tugunlarida amalga oshiradi. Kasallik asosan alimantar yo'l bilan, shuningdek to'g'ri kontakt yo'li bilan yuqadi. Ko'pchilik kuzatuvchilar rotavirus diareyasi faslga bog'liq kasallik bo'lib, asosan qish oylarida uchrashi to'g'risida ma'lumot beradilar. Bundan tashqari, virus bilan ifloslangan predmet, buzoq boquvchilar orqali ham yuqishi mumkin. Buzoqlar kasalligi ko'p hollarda aralash keladi. Bir to'daning ichida mikroba va virus aralashib kelishi ko'p kuzatilgan. Agar rotavirusga koronavirus ham qo'shib kelgudek bo'lsa, kasallik og'ir kechib, o'lim 70-75 foizga ko'tarilib ketadi.[5;8]

Oldini olish chora tadbirlari: Yangi tug'ilgan buzoqlarda uchraydigan virusli-bakterial infeksiyalar asosan sanitariya ahvoli past, to'yimli balansli ozuqalar bilan oziqlantirish yo'lga qo'yilmagan fermalarda uchraydi. Shuning uchun bu yerda asosiy masala shu omillarni yo'qotish bilan birga, hayvon organizmining rezistentligini oshirishdan iboratdir. Bu tadbir hayvonlar bo'g'ozlik davridan boshlanishi kerak. Bo'g'oz hayvonlarga balansli, to'yimli ozuqa berish va ratsion tashkil qilish talab etiladi. Shu davrda silos, jo'm kabi ozuqabop moddalar berilishi qat'iy man etiladi. Vitaminli ozuqalar, mikroba va makroelementlarga boy ratsionni tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Yosh hayvonlarga ABK, PABK, oshqozon shiralarini berib borish organizm rezistentligini oshiradigan omillardandir. Fermalarning sanitariya holati va joriy dezinfeksiya o'tkazib turish yosh hayvonlar oshqozon-ichak kasalliklarining oldini olishda asosiy omillardan hisoblanadi. Salmonellyoz va kolibakteriozda kasal hayvonlar kasallik qo'zg'atuvchi eng xavfli manba hisoblanadi. Shuning uchun ularni vaqtida diaqnoz qo'yib, ajratib olish (izolyasiya) va joriy dezinfeksiya o'tkazish zarur. Dezinfeksiya uchun 2% li faol xlor, 20% li xlorli ohak eritmasi, 5% li xlor (I)-yodid, 2% li formalinlar tavsiya etiladi. Bakteriya tashuvchi hayvonlar qat'iy hisobga olinib, bakteriologik va serologik tekshiruv o'tkazib turiladi. Tug'ilgan yosh buzoq, kolostral immunitet hosil qilish uchun bo'g'oz hayvonlar

tug'ishdan 1 oy oldin emlanadi. Passiv immunitet uchun kolibakterioz, salmonellyoz va pasterellyozga qarshi giperimmun qon zardobi VITI da yaratilgan (buzoq pasterellyoz, salmonellyoz, kolibakterioz kasalliklariga qarshi polivalent radiovaksina bo'g'oz sigirlarga 1 marta 10 ml, teri ostiga) emlanadi.. U asosan davolash va profilaktika uchun ishlatiladi.[6;8]

Yosh buzoqlarning rotavirus diareyasi kasalligini maxsus oldini olishning asosiy yo'li vaktsinatsiya o'tkazishdir. Chet ellarda sigir embrionining buyrak hujayrasida tayyorlangan vaksina ishlatiladi. Buzoqlarni peroral emlash 48-52 soatdan keyin ularni kasallanishdan asraydi. Bo'g'oz sigirlarni emlash uchun inaktivatsiya qilingan vaksina tug'ishdan 5 hafta oldin ishlatiladi. Bundan tashqari, profilaktika uchun quyidagi usul tavsiya etiladi. Tug'ilgan buzoqlarga og'iz sutiga maxsus antitelo aralashtirib beriladi. Bundan asosiy maqsad mollarning umumiy rezistentligini oshirishdir. Veterinariya va sanitariya talablariga qat'iy rioya qilinib, organizm bilan tashqi muhit o'rtasidagi disbalansga yo'l qo'yimaslik eng zaruriy shartdir.[8]

Xulosa: Yangi tug'ilgan buzoqlarda uchraydigan virusli-bakteriali infeksiyalarning etiologik omillar va ularni oldini olish usullari borasida adabiyotlarni tahlil qilish va shaxsiy tadqiqotlarimiz bilan shunday xulosaga keldikki, nosog'lom xo'jalikda yangi tug'ilgan va 4-7 haftalikkacha bo'lgan yosh buzoqlarni saqlash, bo'g'oz sigirlarni sanitariya ahvoli past, to'yimlilik balansli past ozuqalar bilan oziqlantirish yo'lga qo'yilmagan xo'jaliklarda uchrashi, vaktsinatsiya tadbirlari o'z vaqtida olib borilmagani yangi tug'ilgan buzoqlarda uchraydigan virusli-bakterial insektsiyalarning tarqalishiga olib keladi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. В.Н. Кисленко, Н.М. Количев, О.С. Суворина. Частная ветеринарная микробиология и иммунология. Часть.3 Частная микробиология.// М.Колос, 2007.S.75-92
2. Z.J.Shapulatoва. Mikrobiologiya. O'quv qo'llanma. //Toshkent,2013.128-131b
3. B.Sayitqulov, H.Salimov, A.Oripov, Q.Norboyev. Veterinariya mutaxasislari uchun qisqacha ma'lumotnoma. O'quv qo'llanma. //Toshkent,2015. 120-130-b
4. M.P. Parmonov, A.A. Qambarov. Epizootologiya. O'quv qo'llanma.// Toshkent,2006
5. <https://www.allvet.ru/>
6. <https://www.vidal.ru/veterinar/novosti/10329>
7. <https://uz.redfeatherfarm.org/628-symptoms-and-treatment-of-calf-salmonellosis>.
8. <https://sanatoriyru.ru/uz/pozvonochnik/rotavirusnaya-infekciya>